Sirdaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

II. Sirdaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **15 513,0** mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – **13 679,7** mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – **1 210,4** mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi **622,9** mlrd so'mni tashkil qildi.

Sirdaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Sirdaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Boyovut (**2 180,9** mlrd so'm), Sardoba (**2 081,4** mlrd so'm), Sayxunobod (**2 017,7** mlrd so'm), Xovos (**1 909,3** mlrd so'm), Sirdaryo (**1 793,7** mlrd so'm) va Mirzaobod (**1 715,2** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**32,2** mlrd so'm), Yangiyer (**116,4** mlrd so'm) va Guliston shaharlarini (**595,1** mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm, mlrd so'm	**O'sish sur'ati % da**
Sirdaryo viloyati	**15 513,0**	**107,8**
Guliston sh.	595,1	102,7
Shirin sh.	32,2	106,5
Yangiyer sh.	116,4	105,3
tumanlar:		
Oqoltin	1 462,9	110,8
Boyovut	2 180,9	110,6
Sayxunobod	2 017,7	107,7
Guliston	1 608,2	105,7
Sardoba	2 081,4	107,9
Mirzaobod	1 715,2	106,3
Sirdaryo	1 793,7	105,7
Xovos	1 909,3	109,6

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Oqoltin (**110,8** %), Boyovut (**110,6** %) va Xovos tumanlarida (**109,6** %) qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Guliston (**102,7** %), Yangiyer shaharlarida (**105,3** %) va Guliston (**105,7** %) tumanida o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **13 294,7** mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan **109,0** % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari **8 570,1** mlrd so'mni (**113,5** %), chorvachilik mahsulotlari **4 724,6** mlrd so'mni (**100,9** %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Boyovut (**1 836,9** mlrd so'm), Sayxunobod (**1 781,8** mlrd so'm), Xovos (**1 764,6** mlrd so'm) va Sirdaryo (**1 613,4** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**29,8** mlrd so'm), Yangiyer (**102,2** mlrd so'm) va Guliston shaharlarini (**562,1** mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Sardoba (**113,1** %), Mirzaobod (**112,0** %), Oqoltin (**111,9** %) va Boyovut (**111,1** %) tumanlarida qayd etildi. Boshqa hududlarga nisbatan Yangiyer (**101,8** %), Guliston shaharlarida (**103,2** %), Guliston (**104,8** %) tumanida va Shirin (**105,0** %) shahrida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **41,9** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **36,8** % fermer xo'jaliklariga, **21,3** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xovos (**1 317,1** mlrd so'm), Boyovut (**1 302,5** mlrd so'm), Sirdaryo (**1 138,8** mlrd so'm) va Sayxunobod (**1 070,8** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**9,3** mlrd so'm), Yangiyer (**23,1** mlrd so'm) va Guliston shaharlarini (**110,6** mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Sardoba (**120,3** %), Mirzaobod (**119,5** %), Oqoltin (**117,0** %) va Boyovut (**115,3** %) tumanlarida qayd etildi. Boshqa hududlarga nisbatan Shirin (**104,4** %), Yangiyer shaharlarida (**105,0** %) va Guliston tumanida (**106,7** %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan **656 490,2** tonna donli ekinlar (2025-yilning yanvar-sentabriga nisbatan **5,8** % ga ko'p), **72 916,0** tonna kartoshka (**3,0** % ga ko'p), **289 367,2** tonna sabzavotlar (**1,0** % ga ko'p), **357 588,4** tonna poliz ekinlari (**1,0** % ga ko'p), **82 399,2** tonna meva va rezvorlar (**2,6** % ga ko'p), **13 688,5** tonna uzum (**4,6** % ga ko'p) yetishtirildi.

Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

2026-yil yanvar-sentabr

	Miqdori	O'sish sur'ati % da
Donli ekinlar, tonna	**656 490,2**	**105,8**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	416 667,1	112,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	71 907,1	103,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	167 916,0	93,2
Kartoshka, tonna	**72 916,0**	**103,0**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	11 026,3	101,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	59 536,5	102,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 353,2	125,0

	Miqdori	O'sish sur'ati % da
Sabzavotlar, tonna	**289 367,2**	**101,0**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	106 715,6	94,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	149 379,4	102,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	33 272,2	119,2
Poliz ekinlari, tonna	**357 588,4**	**101,0**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	163 524,9	104,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	143 065,8	94,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	50 997,7	112,4
Meva va rezavorlar, tonna	**82 399,2**	**102,6**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	23 559,9	96,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	52 450,7	104,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6 388,6	115,2
Uzum, tonna	**13 688,5**	**104,6**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 049,5	113,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	10 145,8	101,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 493,2	120,0

2026-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan donli ekinlarning **63,4** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **11,0** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **25,6** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

2026-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari (tonna)

	Donli ekinlar	Kartoshka	Sabzavotlar
Sirdaryo viloyati	**656 490,2**	**72 916,0**	**289 367,2**
Guliston sh.	2 578,1	1 975,7	8 962,6
Shirin sh.	469,5	302,1	300,3
Yangiyer sh.	1 227,8	492,7	328,4
tumanlar:			
Oqoltin	75 403,6	623,3	14 762,0
Boyovut	112 386,8	11 907,7	37 497,8
Sayxunobod	89 383,7	13 864,2	33 702,5
Guliston	65 925,8	5 081,7	31 378,6
Sardoba	84 633,4	3 741,2	28 333,0
Mirzaobod	42 271,0	4 716,7	28 859,3
Sirdaryo	89 136,0	23 830,1	47 300,3
Xovos	93 074,5	6 380,6	57 942,4

Shunga mos ravishda kartoshkaning **15,1** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **81,7** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **3,2** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, sabzavotlarning **36,9** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **51,6** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **11,5** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining **45,7** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **40,0** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **14,3** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning **28,6** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **63,6** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **7,8** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning **15,0** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **74,1** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **10,9** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2026-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan ayrim turdagi dehqonchilik mahsulotlari (tonna)

	Poliz ekinlari	Meva va rezavorlar	Uzum
Sirdaryo viloyati	**357 588,4**	**82 399,2**	**13 688,5**
Guliston sh.	3 172,4	992,4	950,4
Shirin sh.	104,9	315,0	57,4
Yangiyer sh.	147,1	1 129,2	239,4
tumanlar:			
Oqoltin	76 861,1	4 562,0	545,3
Boyovut	21 852,3	14 869,4	2 618,2
Sayxunobod	18 038,6	12 051,0	1 124,3
Guliston	24 471,3	10 399,8	1 648,9
Sardoba	51 828,3	4 448,3	282,9
Mirzaobod	63 034,3	9 913,4	2 294,0
Sirdaryo	27 103,7	9 931,3	2 229,8
Xovos	70 974,4	13 787,4	1 697,9

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Sayxunobod (**710,9** mlrd so'm), Sadoba (**562,9** mlrd so'm), Mirzaobod (**538,6** mlrd so'm), Boyovut (**534,4** mlrd so'm) va Guliston (**484,9** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**20,4** mlrd so'm), Yangiyer shaharlarini (**79,1** mlrd so'm) va Oqoltin (**419,9** mlrd so'm) tumanini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Shirin shahrida (**105,3** %), Guliston (**101,2** %) va Mirzaobod (**101,1** %) tumanlarida qayd etildi. Sayxunobod (**100,6** %), Sirdaryo (**100,8** %) va Xovos (**100,8** %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda **40 446,6** tonna go'sht, **192 818,5** tonna sut, **323 238,7** ming dona tuxum, **602,5** tonna qirqib olingan jun yetishtirildi va **20 220,4** tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **100,8** % ni, sog'ib olingan sut – **100,9** % ni, olingan tuxum – **101,8** % ni, qirqib olingan jun – **107,6** % ni hamda ovlangan baliqlar – **107,6** % ni tashkil qildi.

Yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

2026-yil yanvar-sentabr

	Miqdori	O'sish sur'ati % da
Go'sht *(tirik vaznda)***, tonna**	**40 446,6**	**100,8**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4 037,4	100,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	27 370,2	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9 039,0	100,6
Sut, tonna	**192 818,5**	**100,9**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	29 044,1	100,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	145 198,1	101,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	18 576,3	100,2
Tuxum, ming dona	**323 238,7**	**101,8**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	20 342,0	104,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	99 686,2	101,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	203 210,5	101,5

	Miqdori	O'sish sur'ati % da
Jun, tonna	**602,5**	**107,6**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	103,3	126,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	456,4	103,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	42,8	122,1
Baliq, tonna	**20 220,4**	**107,6**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5 452,9	125,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	8 335,6	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6 431,9	105,4

2026-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan **10,0** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **67,7** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **22,3** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning **15,1** % fermer xo'jaliklari, **75,3** % dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **9,6** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning **6,3** % fermer xo'jaliklariga, **30,8** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **62,9** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning **17,1** % fermer xo'jaliklari, **75,8** % dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **7,1** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning **27,0** % fermer xo'jaliklariga, **41,2** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **31,8** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

2026-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Go'sht *(tirik vaznda), tonna*	**Sut,** *tonna*	**Tuxum,** *ming dona*	**Baliq,** *tonna*
Sirdaryo viloyati	**40 446,6**	**192 818,5**	**323 238,7**	**20 220,4**
Guliston sh.	4 384,0	1 967,3	88 589,3	145,8
Shirin sh.	220,3	361,7	499,0	16,4
Yangiyer sh.	924,7	585,7	699,1	19,1
tumanlar:				
Oqoltin	3 816,9	16 045,7	16 236,0	868,6
Boyovut	4 353,9	28 881,1	11 584,7	2 390,0
Sayxunobod	5 588,8	38 863,4	30 553,4	1 401,0
Guliston	3 948,9	25 302,0	16 027,0	2 802,9
Sardoba	5 017,2	19 866,9	40 797,1	2 030,9
Mirzaobod	3 862,1	25 702,2	78 052,9	7 165,4
Sirdaryo	3 997,9	22 173,3	20 316,6	1 737,2
Xovos	4 331,9	13 069,2	19 883,6	1 643,1

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-oktabr holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni **300 422** boshga yetdi, (2025-yilning 1-oktabr holatiga nisbatan **3,0** % ga ko'paygan), sigirlar **120 502** boshga (**4,4** % ga ko'p), qo'y va echkilar **385 968** boshga (**5,7** % ga ko'p), parrandalar **6 468 798** boshga (**28,4** % ga ko'p) yetdi.

2026-yilning 1-oktabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Bosh	O'sish sur'ati % da
Yirik shoxli qoramollar	**300 422**	**103,0**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	50 961	106,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	217 722	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	31 739	114,3
shundan sigirlar	**120 502**	**104,4**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	24 091	109,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	82 721	101,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	13 690	117,6
Qo'y va echkilar	**385 968**	**105,7**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	82 579	110,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	261 193	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	42 196	134,4

Otlar	**11 081**	**106,3**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5 664	105,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3 785	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 632	127,5
Parrandalar	**6 468 798**	**128,4**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	397 527	110,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 436 270	101,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4 635 001	141,8

2026-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning **17,0** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **72,5** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **10,5** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan **20,0** % fermer xo'jaliklariga, **68,6** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **11,4** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan **21,4** % fermer xo'jaliklariga, **67,7** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **10,9** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Parrandalar umumiy sonidan **6,1** % fermer xo'jaliklariga, **22,2** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **71,7** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2026-yilning 1-oktabr holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni, bosh

	Yirik shoxli qoramollar	shundan, sigirlar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Sirdaryo viloyati	**300 422**	**120 502**	**385 968**	**6 468 798**
Guliston sh.	9 496	2 953	10 597	1 638 590
Shirin sh.	2 157	645	3 017	15 989
Yangiyer sh.	3 906	1 174	10 049	122 339
tumanlar:				
Oqoltin	25 513	9 547	35 677	362 342
Boyovut	48 127	18 472	61 439	289 072
Sayxunobod	49 981	23 642	45 960	268 622
Guliston	37 614	14 689	31 932	418 740
Sardoba	29 500	12 034	45 044	751 758
Mirzaobod	31 828	13 776	51 405	1 720 572
Sirdaryo	33 210	12 210	32 914	557 527
Xovos	29 090	11 360	57 934	323 247

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:
https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit statistikasi bo'limi

Aloqa uchun:
Tel: +998 67 236-70-00 (2110)